



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### KONSTITUTSIYA- ERKIN VA FARAVON HAYOT GAROVI

**Po'latova S.O.**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universititi  
Tabiiy fanlari fakulteti Kimyo yo'nalishi  
1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekistonning Davlat va jamiyat qurilishini, insonning huquqiy maqomini, uning davlat jamiyat bilan aloqalarini belgilaydi va boshqa muhim vazifalarni bajaradi. Davlat xalq farovonligini oshirishda tinch-totuv yashashini va sog'lig'ini saqlashda g'amxo'rlik qiladi. Inson, uning huquqlari, erkinliklari va kafolatlari jamiyat va davlatning oliy maqsadi va buyuk qadriyati hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** *Shaxsiy huquq, erkinliklari, fuqorolarning burchlari, ommaviy axborot vositalari, prokuratura, saylov tizimi, Oliy Majlis, President, Mudofaa, xavfsizlik, demokratiya, muqaddima, tenglik.*

**Annotation:** *The Constitution of the Republic of Uzbekistan defines the state and societal structure of Uzbekistan, the legal status of individuals, their relationship with the state and society and performs other important tasks. The state takes care of improving the welfare of people, ensuring peaceful and harmonious living and maintaining the health of citizens. The individual, their rights, freedoms and guarantees are the supreme goal and greatest value of society and the state.*

**Keywords:** *Personal rights, freedoms, citizens duties, mass media, prosecution, electoral system, Oliy Majlis, President, defense, security, democracy, preamble, equality.*

**Аннотация:** *Конституция Республики Узбекистан определяет государственное и общественное устройство Узбекистана, правовой статус личности, отношения с государством и обществом, а также выполняет другие важные задачи. Государство заботится о повышении благосостояния народа, обеспечении мирной и гармоничной жизни и сохранении здоровья граждан. Человек, его правда, свободы и гарантии являются высшей целью и величайшей ценностью и государства.*

**Ключевые слова:** *Личные правда, свободы, обязанности граждан, средства массовой информации, прокуратура, избирательная система, Олий Межлиси, Президент, оборона, безопасность, демократия, преамбула, равенство.*

O'zbekiston xalqi: Inson huquqlariga va Davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas' uliyatni anglagan holda, o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda, respublika fuqorolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ko'zlab, fuqorolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash maqsadida, o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida faoliyat ko'rsatadi va o'z fuqarolarini himoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasi demokratik va umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasini ifoda etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hozirgi zamon qonunchiligi, ilg'or tajribalari va milliy turmush tarzimiz, an'analarimiz, ma'naviy axloqiy me'yorimizni o'zida mujassam etgan. Bu bejiz emas. Chunki o'zbek milliy davlatchiligi tajribalari, davlat boshqaruvi me'yorlari va qoidalari qariyb uch ming yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Bu bevosita hozirgi zamon jahon davlatchiligi ilg'or tajribalaribilan milliy davlatchilik an'analarining sintezi sifatida dunyoga kelib, dunyo davlatchiligi shonli sahifalariga "o'zbek modeli" sifatida qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida bugun davlat boshqaruvi tiziming barcha bo'g'inlari to'la quvvat bilan ishlamoqda. Prezident jamiyat barqaror taraqqiyotini ta'minlaydigan farmonlar, qarorlar, qonunlar, farmoyishlar, parlament, hukumat va mahalliy kengashlar esa qarorlar qabul qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jahon konstitutsion me'yorlari ga to'la mos keladi va o'zida butun bir tizimni mujassam etadi. U muqaddima, asosiy qismi, bir qator bo'limlar va boblardan tashkil topgan yaxlit tizimdan iborat.

Konstitutsiya Asosiy qonuni sifatida har bir fuqoro va davlat faoliyatini, hayotini hamda taqdirini kafolatlaydi. Konstitutsiyaning muqaddimasida uning asosiy prinsiplari alohida urg'u bilan ifoda etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (davlat singari) xalq uchun xizmat qiladi va uning manfaatlarini himoya qiladi. Davlat va inson bir-biri oldida javobgar, o'zaro teng huquqli hamkor sifatida faoliyat ko'rsatadi. Konstitutsiyada inson huquqlari, erkinligi va majburiyatlari to'la kafolatlangan.[1]

Konstitutsiya davlatning huquqiy asosiy sifatida xalq farovonligining muhim omili sanaladi. Har bir fuqoro Konstitutsiyasida belgilangan huquq va majburiyatlarni yaxshi bilishi va ularga rioya qilishi jamiyatning yanada barqaror va rivojlangan bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bois, Konstitutsiyani hurmat qilish va unga amal qilish har bir fuqoroning burchidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Men O'zbekiston fuqorosiman" Toshkent (2010 26-30- betlar)."
2. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin" I.A.Karimov 1994 ( 184-186-betlar).

